



UDK: 37:17:316

Sevara PULATXODJAYEVA,  
Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi, Toshkent, O'zbekiston  
E-mail:sevarapulatxodjayeve@gmail.com, ORCID ID: 0009-0001-1063-9575

Xalqaro kimyo universiteti dotsenti G. Mashrapova taqriz ostida

## OILA VA JAMIYAT RIVOJI TARAQQIYOTIDA MA'NAVY AXLOQIY TARBIYANING ROLI.

Аннотация

Mazkur maqola ta'lim va tarbiya jarayonlarini uzviyligini ta'minlashda muhim vosita sanalgan insonparvarlik tuyg'usini shakllantirish, yoshlarni milliy qadryatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, mehr-oqibat tushunchalarining shakllanishida oilaviy tarbiyaning o'rni haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Mehr, oqibat, insonparvarlik, gumanizm, shaxs, oila, milliy g'urur, madaniy meros, xalq millat, bayram, milliy ong.

## РОЛЬ ДУХОВНОГО И ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В РАЗВИТИИ СЕМЬИ И ОБЩЕСТВА.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль семейного воспитания в формировании чувства гуманности, которое считается важным инструментом обеспечения преемственности образовательного и воспитательного процессов, воспитания молодежи в духе верности национальным ценностям и формирования понятий доброты и ответственности.

**Ключевые слова:** доброта, ответственность, гуманность, гуманизм, личность, семья, национальная гордость, культурное наследие, люди, нация, праздник, национальное самосознание.

## THE ROLE OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF THE FAMILY AND SOCIETY.

Annotation

This article discusses the role of family education in the formation of a sense of humanity, which is considered an important tool in ensuring the continuity of educational and upbringing processes, in educating young people in the spirit of loyalty to national values, and in the formation of concepts of kindness and consequence.

**Keywords.** Kindness, consequence, humanity, humanism, personality, family, national pride, cultural heritage, people, nation, holiday, national consciousness.

**Kirish.** Hozirgi zamon globallashuv sharoitida yoshlarda milliy qadryatlarni rivojlantirish, oila va jamiyatda ma'nani yetuk kadrlarni tayyorlash zamonaviy yuqori salohiyatli terak fikrlavchi avlodni tayyorlashda insonparvarlik tushunchasi yuqori o'rinda turadi. Chunki bun orqali yoshlarning ilmiy bilimlari va gumanizm g'oyalari shakllanadi va taraqqiy qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarningjamiyatdagi tutgan o'rni, ularning salohiyatiga qarab "Yoshlarimiz biznes, ilm – fan, madaniyat, san'at, adabiyot va sport sohalarida olamshumul muvoffaqiyatlarga erishmoqda. Bu mamlakatimiz istiqboliga, buyuk ajdodlarimiz boshlagan ezgu ishlarni kelajak avlodlar munosib davom ettirishiga katta ishonch bag'ishlaydi"[1], deya takidlaganlar. Buning ma'nosi shuki tariximizda yuksak taraqqiy etgan birinchi va ikkinchi renessans davrlarida yetishib chiqqan buyuk yurtdoshlarimizga munosib avlod bo'lib yashash, shuningdek hozirgi zamon "uchunchi renessans" boshlangan davrda yuksak ilmi va tezkor aniq fikrlovchi, zamonaviy axbotot almashinuvdan xabardor, o'z ilmi sohasi bo'yicha jahon minbarlariga chiqa oladiga yoshlarni tarbiyalash muhim omil sifatida qaralmoqda. Har bir jamiyatda qadryat tuhsunchasi alohida o'rganuladigan keng tarmoq sifatida qarashimiz mumkin. Aynan bunda jamiyatda kishilarni o'tmishi va kelajagini bog'lab beruvchi milliy qadryatlarni roli beqiyoyq hisoblanadi.

Milliy qadryatlar – bu muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy, ma'naviy va axloqiy boylıklar majmuasidir. Ular til, din, urf-odatlar, an'analar, san'at,

madaniyat va turmush tarzida o'z ifodasini topadi. oshlar uchun milliy qadryatlarning ahamiyati shundaki avvalo birinchi navbatda yoshlarda ularning milliy o'zligini anglashiga yordam beradi. Bu orqali esa milliy o'zlik, ajdodlarga munosib avlod bo'lish hissi namoyon bo'ladi. Shuningdek jamiyatga moslashuv jarayonini osonlashtirish mexanizm ham taraqqiy qiladi. Bu orqali esa butun millat va elatlar orasida hur fikrga ega, diniy va dunyoviylik to'g'ri yo'g'rilgan kadrlar tayyorlashga yordam beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ma'naviy immunitetni kuchaytirish omili orqali eng asosiysi mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash, ularni "ommaviy madaniyat" dan xoli xoli qilib tarbiyalash eng asosiy vazifa sifatida qaraladi. Bu mavzuda falsafa fanlari doktori professor Sultonova Nodiraning ilmiz izlanishlari alohida e'tiborga olish kerak. Ularning imiz qarashlari jamiyatda oilaning o'rni va roli, hayotiy rivojlanishda baxt tushunchasi alohida keng ravishda izohlangan. Shuningdek begona g'oyalarga qarshi barqarorlikni ta'minlash ham muhim omil hisoblanadi. Bu orqali insoniy tushunchasi, komillikka erishish tushunchasi, har bir yot g'oyaga qarshi fikrlaydigan keng dunyoqarashga ega yoshlarni tarbiyalash asosiy vazifa sifatida qaraladi. Bugungi kunda ayrim yoshlar orasida milliy qadryatlarga befarqlik, ommaviy madaniyat ta'siriga berilish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa tarbiya tizimini yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Globalashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda yosh avlodni milliy qadryatlarga sodiq, ma'naviy barkamol, mehr-oqibatli qilib tarbiyalash dolzarb

masalalardan biridir. Chunki har qanday jamiyatning ertangi kuni aynan yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasiga bog'liq. Milliy qadriyatlar xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlarini, an'analari, e'tiqodi va hayotiy qarashlarini o'zida mujassam etadi. Mehr-oqibat esa insoniylikning eng muhim fazilatlaridan biri bo'lib, jamiyatda ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlaydi. Shu bois yoshlar ongida milliy qadriyatlarga sodiqlik va mehr-oqibat tuyg'ularini shakllantirish ilmiy jihatdan asoslangan yondashuvlarni talab etadi. Ma'lumki, an'analar xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va ajdodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o'tib kelayotgan bebaho ma'naviy boylik hisoblanadi. Millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir avlodning muqaddas burchi bo'lib qolyapti. An'analar barhayot bo'lishi uchun, eng avvalo, uni kelajagimiz bunyodkorlari yoshlar egallashi lozim. An'anaviy xalq bayramlarining tiklanishi o'zbek madaniyati tarixida o'ta muhim voqea bo'lib qolmoqda. Chunki bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan madaniyatning yirik va muhim shakli hisoblanadi. Shu yo'l bilan azaliy bayramlarning tiklanishi bilan xalq madaniyatining eng qimmatli tomonlarini jonlantirishga zamin yaratildi. Xalq an'analarning tiklanishi borasida so'z borganda, yoshlar kamolotida muhim o'rin tutadigan xalq o'yinlariga alohida to'xtalish lozim.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mehr-oqibat tushunchasi va uning ijtimoiy ahamiyati jamiyatning rivojlanish va ma'naviy barkamol bo'lishida asosiy ahamiyat kasb etadi. Aynan bunda mehr-oqibat – bu insonning boshqalarga nisbatan rahm-shafqat, g'amxo'rlik, hurmat va yordam ko'rsatish kabi ijobiy munosabatlaridir. U oilada, jamiyatda va insonlararo munosabatlarda muhim o'rin tutadi va insonning shakllanishida, isonparvarlik tamoyillarida yetuk ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon orqali esa yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalash, ularni ham yetuk kadrlar bo'lishida asosiy jihatlardan biri bolib xizmat qiladi. Mehr-oqibatli yoshlar tarbiya qilish va ularni o'stirish orqali kishilik jamiyatida yoshlarda quyidagi tushunchalar keng rivojlanib boradi.

- ota-onaga hurmat bilan qarash;
- jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatni his qilish;
- yordamga muhtoj insonlarga befarq bo'lmaslik;
- ijtimoiy nizolardan yiroq bo'lish

Shu bois mehr-oqibatni shakllantirish yoshlar tarbiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Yuqoridagi tarbiya shakllari keng tarmoq kasb etishi bilan insoniylik tuyg'ulari yanada jonlanib boradi. Shuningdek milliy qadriyatlar va ularga sodiqlik tuhsunchasi bu o'rinda asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlarda milliy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish omillari orqali ularning oil avaj jamiyat miqyosidagi o'rniga ham baho beriladi. Bunda birinchi navbatda oila muhiti eng asosiy tarmoq bo'lib shakllaniradi. [2] Chunki oila – tarbiyaning birlamchi maskani. Farzand ota-onaning xulq-atvori, muomalasi va qadriyatlariga qarab shakllanadi. Agar oilada milliy urf-odatlariga amal qilinsa, bu yoshlar ongiga tabiiy ravishda singadi. Shuningdek ta'lim tizimi ham bu o'rinda asosiy quroldir. Ta'lim olish orqali maktab va oliy ta'lim muassasalari yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Dars jarayonlarida milliy qadriyatlarga oid mavzularni keng yoritish zarurligi har bir o'quvchi va talabalarning keng dunyoqarash egasi bo'lishlarida ustovorlik kasb etadi. Keyingi navbatda esa mahalla va jamiyat tushunchasini takidlab o'tish joiz. Buning eng asosiy nomoyon bo'lishi tarbiyaviy xarakterdanamoyon bo'ladi. Mahalla institutining tarbiyaviy ahamiyati katta. Undagi ijtimoiy muhit yoshlarni jamoaviylik, hurmat va birdamlik ruhida tarbiyalaydi. Kreng jamoatchilik orasida yuksak hurmat hissini kuchaytirish orqali uni xalq orasidagi o'rni ni topishiga yordam beradi. Shu o'rinda

ommaviy axborot vositalari tushunchasini ham alohida takidlab o'tish joiz. Televideniye, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.[3] Shuning uchun ularda milliy ruhdagi kontentni ko'paytirish muhim. Bunda ham ommaviy axborot vositalarida jurnalistik qarash ham muhim hisoblanadi. Chunki mehr-oqibatni shakllantirishning pedagogik usullari avvalo ijrochining mahoratiga ham bog'liq. Mehr-oqibatni shakllantirishda quyidagi pedagogik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- Shaxsiy namuna – ustoz va ota-onaning o'z xulqi bilan o'rnatilgan bo'lishi;
- Tarbiya jarayonida suhbat va munozaralar – axloqiy mavzularni muhokama qilish;
- Ijtimoiy faoliyatga jalb qilish – xayriya, ko'ngillilik ishlari;
- Badiiy adabiyot va san'atdan foydalanish – mehr-oqibatni targ'ib qiluvchi asarlar orqali ta'sir o'tkazish.

Oila va jamiyatda yuksak salohiyatlari kadrlar va yoshlarni tarbiya qilishda zamonaviy tahdidlarga qarshi kurasha oladigan va ularni bartaraf etish yo'llarini topa oladigan ilmiy bilimlarni jamiyatda keng qo'llay oladigan yoshlar kerakligi ham mavzuning dolzarblik xususiyati yana bir bor ko'rsatib beradi. Hozirgi zamon yoshlarida globallashuv sharoitida yoshlar ongiga turli zararli g'oyalari kirib kelishi mumkin. Xususan ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri, bu orqali eng asosiy unsur mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lmagan yoshlarda asosiy nuqson sifatida nomoyon bo'ladi. Shuningdek individualizmning ortib borishi bilan esa egaistik qarashlarning yuksaklashuvi, shaxslarda faqatgina bir tomonlama fikrlar kengayib borishini oldini olish zarur. Va eng asosiy ma'naviy qadriyatlarga befarq bo'lmagan axloqiy fazilatlarini yuqori bo'lgan avloqni tarbiya qilmoq zarur. Yoshlarda bunday ma'naviy tahdidlarning oldini olish uchun avvalo milliy tarbiya tizimini kuchaytirish zarur. Bu orqali tarbiya va ta'limni yonma yon olib borish asosiy zarurat bo'lib namoyon bo'ladi. Shuningdek yoshlar bilan individual ishlash tushunchasini jonlantirish, ularda ijtimoiy loyihalarni rivojlantirish va qo'llab quvvatlash, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ko'paytirish bilan esa oilaviy tarbiyaning jamiyatda nechog'lik muhim ekanligini isbotlash ham mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Shu jarayonda har bir shaxsda milliy ma'naviyatni, milliy ong, milliy shuur, milliy tuyg'uni barkamollikka ko'tarish omillari faollik jarayoniga ko'chadi. Bu ulug'vor maqsadlarni amalga oshirish uchun jamiyatimiz o'zining real imkoniyatlariga ega. Avvalo, ozod va mustaqil Vatanda xalqni farovonlikka yetaklovchi va ma'lum ma'noda munosib turmushni kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratildi. Davlatimizda fidoyi, ishchan, tashkilotchilik salohiyati baland malakali kuchlar ulg'aydi. Ular siymosi, faoliyatida milliy ma'naviyatning barqaror mag'zi, yaratuvchan kuchi mavjud. Milliy ma'naviyati barqaror shakllangan bunday kishilar o'z xalqi, millati, vatani manfaatini har qanday sharoitda himoya qiladi, o'z faoliyatida xalqimizning milliy ma'naviyatini namoyish eta oladigan, millatning salohiyatini, Vatani qadri, sha'ni, shuhratini ellararo, davlatlararo ko'rsata biladigan insonlardir. Yoshlarga milliy qadriyatlarni ta'limdan tashqari ishlar orqali singdirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

Birinchi, yoshlarni erkin fikrlashga o'rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini, shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg'otish; [4]

Ikkinchidan, talabalarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

Uchinchi, har bir o'smiring bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson

faoliyatini turli sohalarda joriy qilish. Yoshlar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart sharoit hozirlash;

To'rtinchidan, insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga qarshi kurasha olish), muomala odobi kabi tarbiya vositalarini keng qo'llash;

Beshinchidan, yoshlarimizni erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish. Ta'limdan tashqari tarbiyaviy ishlar talaba-yoshlarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi.[5] Bu jarayonlarni tashkil etish yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki avvalo yoshlarni milliy qadryatlarga sodiq, yuksak ma'naviyatli yoshlar bo'lishi uchun tarixiy yodgorliklar, ma'rifiy maskanlar, san'at koshonalari hamda mustaqillik davrida qad ko'targan inshootlarga uyushmagan yoshlar va

talabalarining ekskursiyalarini tashkil qilish g'oyasini ham keng joriy qilish kerak. Chunki bu tarmoq o'tmish bilan bugungi kun o'rtasidai ko'prik vositasini o'tab beradi. Shuningdek o'lkashunoslik va Vatanimiz tarixiga oid to'garaklar ishini jonlantirish orqali esa ulardagi har qanday mahoratni, mahorat maktabi sifatida to'ldirish mumkin. Jamoa yoshlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, mehnat, estetik madaniyatini shakllantirish maqsadida taniqli san'atkor, huquqshunos, ta'lim va fan arboblari, mehnat faxriylari, sog'liqni saqlash xodimlari bilan ijodiy kechalar va uchrashuvlar uyushtirish vositasi bilan yuksak madaniyatli yoshlar tarbiya qilinadi. Mahallalarda uyushmagan yoshlarni va talabalarining shoir va yozuvchilar, davlat va jamoat arboblari, mehnat faxriylari kabi taniqli kishilar bilan uchrashuvlarini uyushtirib borish bilan esa jamiyatdan ajralib qolgan har qanday avlodni fikrni tibglash va qo'llab quvvatlash tushunchasi jonlantiriladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarilamiz.Toshkent. "O'zbekiston". 1- jild. 415 b
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Uzlusiz ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadryatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"
3. Qodirov T. "Istiqlol bergan imkoniyat". "Hidoyat" jurnali. 2018-yil 8-son. 18 b.
4. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an'ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G'G' O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.
5. Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent. Ma'naviyat. 2007. 135 b.
6. Mo'minova X. "Yosh avlodda milliy qadriyatlarni shakllantirish" Xalq ta'limi 2003-yil № 1.